Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 373.3
PEDAGOGIKA

# BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINI FUNKSIONAL SAVODXONLIK ASOSIDA PROFESSIONAL RIVOJLANTIRISH USULLARI

Mahfuza Gafurova Abbosovna*
*Farg'ona davlat universiteti*
✉ mahfuza.gafurova73@gmail.com

**ANNOTATSIYA**

Maqolada bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini funksional savodxonlik asosida professional rivojlantirish masalalari yoritilgan. Kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion metodlar va amaliy faoliyatning kasbiy tayyorgarlikka ta'siri tahlil qilingan hamda samaradorligi baholangan.

**Kalit so'zlar**

Funksional savodxonlik, professional rivojlanish, boshlang'ich ta'lim, bo'lajak o'qituvchi, kompetensiya, pedagogik kompetentlik, kasbiy tayyorgarlik, ta'lim sifati, innovatsion texnologiyalar, muammoli ta'lim, loyiha metodi, case-study, refleksiya, tanqidiy fikrlash, kommunikativ kompetensiya, pedagogik mahorat, amaliy faoliyat, raqamli ta'lim, ta'lim jarayoni, kompetensiyaviy yondashuv.

DOI: 10.5281/zenodo.21743011

## KIRISH


Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan talablar tobora ortib bormoqda. Ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan pedagogning kasbiy tayyorgarligi, amaliy ko'nikmalari va o'z faoliyatida bilimlarni qo'llay olish darajasiga bog'liq. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida funksional savodxonlikni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida qaralmoqda. Funksional savodxonlik shaxsning turli hayotiy vaziyatlarda bilim va ko'nikmalarini samarali qo'llay olish qobiliyatini ifodalaydi. Bugungi kunda xalqaro baholash dasturlari, xususan PISA tadqiqotlari ta'lim sifatini baholashda funksional savodxonlik mezonlariga alohida e'tibor qaratmoqda. Bu esa pedagog kadrlarni tayyorlash tizimiga ham yangi talablarni yuklamoqda. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarning ilk ta'lim bosqichidagi asosiy yo'naltiruvchisi hisoblanadi. Shu sababli uning funksional savodxonligi yuqori darajada rivojlangan bo'lishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llay olishi hamda o'quvchilarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga qodir bo'lishi zarur.

Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini funksional savodxonlik asosida professional rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash hamda samaradorligini tahlil qilishdan iborat.

Funksional savodxonlik tushunchasi dastlab XX asrning ikkinchi yarmida ta'lim nazariyasiga kirib kelgan bo'lib, uning mazmuni vaqt o'tishi bilan kengayib bordi. UNESCO tomonidan funksional savodxonlik shaxsning ijtimoiy va iqtisodiy hayotda faol ishtirok etishi uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar majmui sifatida talqin qilinadi. Dewey ta'limning amaliy faoliyat bilan integratsiyasini ta'kidlab, o'quvchilarning real hayotiy vaziyatlarda bilimlarni qo'llashiga alohida e'tibor qaratgan. Vygotsky esa ta'lim jarayonida ijtimoiy hamkorlik va faoliyatning shaxs rivojlanishidagi ahamiyatini asoslab bergan. OECD tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda funksional savodxonlik ta'lim sifatining muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida qayd etiladi. PISA

tadqiqotlari natijalari shuni ko‘rsatadiki, bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llay oladigan o‘quvchilar yuqori natijalarga erishadilar. O‘zbekistonlik olimlar tomonidan ham pedagogik kompetentlik va funksional savodxonlik masalalari keng o‘rganilgan. Xodjayev, Tolipov va Usmonboyeva Ishmuhamedov tadqiqotlarida bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlari yoritilgan.

Olingan natijalar funksional savodxonlikning bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari professional rivojlanishidagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida aniqlangan ma’lumotlar xalqaro va mahalliy ilmiy tadqiqotlar natijalari bilan uyg‘unlik kasb etadi. Funksional savodxonlik o‘qituvchining kasbiy faoliyatida zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatini yaratadi. Bu esa pedagogning nafaqat o‘z faoliyatida, balki o‘quvchilarni zamonaviy hayot talablariga mos ravishda tayyorlashida ham muhim ahamiyatga ega. Kuzatishlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy ta’lim metodlari bilan bir qatorda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini sezilarli darajada yaxshilaydi. Ayniqsa, muammoli ta’lim va loyiha faoliyati talabalarda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida ularda hosil bo‘ladigan sifatlar ko‘rsatib o‘tildi.(1-rasm).




Shuningdek, funksional savodxonlikni rivojlantirish o‘qituvchilarning kasbiy moslashuvchanligini oshiradi, ularga pedagogik jarayonda yuzaga keladigan turli vaziyatlarga samarali yechim topish imkonini beradi. Shu sababli pedagog kadrlar tayyorlash tizimida funksional savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan maxsus kurslar va amaliy mashg‘ulotlar ulushini kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

## Xulosa

Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini funksional savodxonlik asosida professional rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. Tadqiqot natijalari funksional savodxonlikning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishdagi muhim o‘rnini ko‘rsatdi. Funksional savodxonlikka yo‘naltirilgan ta’lim metodlari bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish, kommunikativ faoliyat yuritish va innovatsion texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bois oliy ta’lim muassasalarida pedagoglarni tayyorlash jarayonida funksional savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan ta’lim texnologiyalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dewey, J. (1916). *Democracy and education.* Macmillan.
2. Ishmuhamedov, R. (2022). *Innovatsion pedagogik texnologiyalar*. Fan va texnologiya.
3. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2023). *PISA 2022 assessment and analytical framework.* OECD Publishing.
4. Tolipov, O., & Usmonboyeva, M. (2020). *Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot.* O‘qituvchi.
5. UNESCO. (2017). *Education for sustainable development goals: Learning objectives.* UNESCO Publishing.
6. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes.* Harvard University Press.
7. Xodjayev, B. (2021). *Pedagogik tadqiqot metodologiyasi*. Tafakkur.
8. Musurmonova, O. (2021). *Pedagogik kompetentlik asoslari*. Fan.
9. Schleicher, A. (2019). *PISA 2018: Insights and interpretations.* OECD Publishing.
10. Trilling, B., & Fadel, C. (2009). *21st century skills: Learning for life in our times.* Jossey-Bass.